

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.I.20.06  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA  
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

**DOSMURATOVA SHAXISTA KENGASHOVNA**

**HOVUZ BALIQCHILIGI XO‘JALIKLARIDA BIZNES-JARAYONLARINI  
REJALASHTIRISHNING TASHKILY-USLUBIY JIHATLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.04 - Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) on  
economical sciences**

**Dosmuratova Shaxista Kengashovna**

Hovuz baliqchiligi xo‘jaliklarida biznes-jarayonlarini rejalashtirishning tashkiliy-  
uslubiy jihatlarini takomillashtirish .....3

**Досмуратова Шахиста Кенгашовна**

Совершенствование организационно-методических аспектов планирования  
бизнес-процессов в прудовом рыбном хозяйстве .....27

**Dosmuratova Shakhista Kengashovna**

Improving organizational and methodological aspects of planning business  
processes in pond fisheries .....53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.I.20.06  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA  
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

**DOSMURATOVA SHAXISTA KENGASHOVNA**

**HOVUZ BALIQCHILIGI XO‘JALIKLARIDA BIZNES-JARAYONLARINI  
REJALASHTIRISHNING TASHKILY-USLUBIY JIHATLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.04-Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2PhD/Iqt3999 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Menglikulov Baxtiyor Yusupovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Qalmuratov Baxtiyar Seytmuratovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Aytimbetov Amirbek Qoishibekovich**  
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiyalash muhandislari instituti»  
Milliy tadqiqot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.01.2020.I.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « 21 » iyun soat 15<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78, e-mail: karsu\_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Axbort-resurs markazida tanishish mumkin (№ 305 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78, e-mail: karsu\_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati, 2025-yil « 04 » iyun kuni tarqatildi.  
(2025-yil « 04 » iyun dagi № 78 raqamli reestr bayonnomasi).

**J.K. Sauxanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

**R.B. Utemuratov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, PhD, dotsent

**B.S. Qalmuratov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor



## Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo mamlakatlari agrar sektorining muhim tarkibiy qismi sanalgan baliqchilik tarmogʻi aholini ekologik toza va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan baliq va baliq mahsulotlari bilan taʼminlashda katta ahamiyat kasb etadi. Baliqchilik tarmogʻi mahsulotlari anʼanaviy ravishda aholining kunlik ovqatlanish ratsioniga kiritiladigan yuqori qiymatga ega boʻlgan ozuqa manbalaridan biri hisoblanadi. «Rivojlangan mamlakatlarda aholi jon boshiga bir yilda isteʼmol qilinadigan baliq goʻshti oʻrtacha 25-45 kilogramm boʻlib, jahon boʻyicha oʻrtacha koʻrsatkich 22 kilogrammni tashkil etadi. Butunjahon sogʻliqni saqlash tashkiloti xulosasiga koʻra, har bir inson bir yilda oʻrtacha 12-16 kilogramm baliq goʻshti isteʼmol qilishi talab etiladi»<sup>1</sup>. Bu esa, baliq mahsulotlari yetishtirishni ilmiy asosda rejalashtirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni taqozo etadi.

Jahonda baliqchilik sohasini rivojlantirish, baliqchilikda iqtisodiy samaradorlikni oshirish, baliqchilik xoʻjaliklarida mahsulot yetishtirish boʻyicha biznes rejalashtirishni takomillashtirish mavzularida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Hovuz baliqchiligi xoʻjaliklarida biznes-jarayonlarni rejalashtirish boʻyicha jahon ilmiy tadqiqotlari asosan raqamli texnologiyalar, ekologik barqarorlik, bozor talablariga moslashish va xalqaro integratsiya yoʻnalishlariga qaratilgan. Innovatsion yondashuvlar sifatida sunʼiy intellekt, IT texnologiyalari asosida avtomatlashtirilgan monitoring, rejalashtirish va boshqaruv tizimlari, ekologik toza oziqlantirish usullari hamda qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish amaliyotlari keng tatbiq etilmoqda. Shu bilan birga, tadqiqotlar kasalliklarga chidamli va tez oʻsuvchi baliq zotlarini yetishtirishni ragʻbatlantirishga, bozor talablariga yoʻnaltirilgan tadqiqotlar klaster tizimini rivojlantirish va eksport imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan. Shu boisdan, dunyo olimlari tomonidan aholining faol va sogʻlom hayot faoliyati uchun zarur boʻlgan miqdorda xavfsiz, sifatli baliq va baliq mahsulotlari bilan taʼminlashni rejalashtirishga doir ilmiy tadqiqotlarga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi qishloq xoʻjaligi iqtisodiyotida baliqchilik zarur tarmoqlaridan biri hisoblanib, soʻnggi yillarda mazkur tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida «2023-yilda baliqchilik xoʻjaliklari soni 1263 tani, baliq ishlab chiqarish hajmi 11597,2 tonnani tashkil etdi»<sup>2</sup>. Tarmoqda boshqaruvning zamonaviy usullarini keng joriy etish orqali iqtisodiyotni, jumladan rejalashtirishni xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish, xususan, hovuz baliqchiligi xoʻjaliklarini toʻgʻri rejalashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan boʻlib, baliqchilikda biznes-rejalarni ishlab chiqish va mahsulot hajmini prognoz qilish ham muhim hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-

---

<sup>1</sup> <https://yuz.uz/news/baliqchilik-kooperatsiya-samaradorlik-va-istiqbol-rivojini-belgilaydi>

<sup>2</sup> Qoraqalpogʻiston Respublikasi Statistika boshqarmasi maʼlumotlari.

son «O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2022-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni, 2023-yil 18-avgustdagi PQ-281-son «Baliqchilik xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv bo‘yi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022-yil 13-yanvardagi PQ-83-son «Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 31-iyuldagi PQ-606-son «Baliqchilik sohasida ilmiy faoliyatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2019-yil 1-maydagi PQ-2939-son «Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-iyuldagi 434-son «Chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik xo‘jaliklariga ular tomonidan yetishtirilgan va sotilgan mahsulotlar uchun subsidiya ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida», 2016-yil 6-maydagi 145-son «Qoraqalpog‘iston Respublikasida baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatlarni tartibga soladigan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** So‘nggi yillarda baliqchilik iqtisodiyoti va uni rejalashtirishning uslubiy va tashkiliy masalalari xorijiy va MDH mamlakatlarining iqtisodchi olimlaridan R.Abrams, A.S.Antonova, K.A.Aksenov, S.A.Arakelyan, S.A.Bratchenko, A.S.Buynevich, D.V.Gorelov, T.V.Dorojkina, T.Yu.Duborasova, N.V.Yeremeeva, A.Ye.Komarov, V.K.Krutikov, N.V.Mitropolskaya-Rodionova, I.V.Petruchenya, T.N.Subbotina, Chernyaxovskiy, M.V.Yakunina<sup>3</sup> va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

---

<sup>3</sup> Р.Абрамс. Бизнес-план на 100%. Стратегия и тактика эффективного бизнеса. Издание на русском языке, перевод, оформление. ООО «АЛЬПИНА ПАБЛИШЕР», 2014; А.С.Антонова, К.А.Аксенов. Разработка метода планирования бизнес-процессов на основе имитационно-эволюционного моделирования: монография / А.С. Антонова, К.А. Аксенов. - М.: Издательский дом Академии Естествознания, 2020. - 160 с.; С.А.Братченко. Бизнес-планирование как эффективный инструмент управления компанией. Монография. -172 с. <https://www.labyrinth.ru/books/808.>; Д.В.Горелов. Организационно-экономические аспекты обеспечения качества бизнес-планирования на промышленных предприятиях. -М.: Дашков и К, 2014; Н.В.Еремеева, Т.Ю.Дуборасова. «Планирование и анализ бизнес-процессов на основы построения моделей управления конкурентоспособности продукции». Монография. -М.; КноРус, -2022. -104 с.; Комаров А.Е. Совершенствование разработки бизнес-плана / -Москва: Лаборатория книги, 2012. – 116 с.; Крутиков В.К., Аракелян С.А., Дорожкина Т.В., Субботина Т.Н., Якунина М.В. Бизнес планирование. Учебно-методическое пособие. Калуга: ИП Стрельцов И.А. (Изд-во «Эйдос»), - 2017. -144 с.; Н.В.Митропольская-Родионова. Экономическая политика: инновации, инвестиции, конкурентоспособность. Монография. [www.naukaip.ru](http://www.naukaip.ru), глава 5. Бизнес-планирование в условиях глобализации малого предпринимательства., -47-54 с.; И.В.Петрученя, А.С.Буйневич. Бизнес-планирование: монография / И.В.Петрученя, А.С.Буйневич. Сибирский федеральный университет, Институт торговли и сферы услуг. - Красноярск: СФУ, 2021 (2021-02-02). - 196 с.; Черняховский Б.И. Развитие инструментария бизнес-планирования на промышленных предприятиях при осуществлении инвестиционных проектов. автореф. дис... канд. экон. наук: 08.00.05 / Черняховский Борис Игоревич. - Ижевск, 2020. - 22 с.

Baliqchilik tarmog‘i iqtisodiyoti, xususan rejalashtirishning nazariy va tashkiliy-uslubiy ta‘minoti masalalarining ilmiy-uslubiy asoslari A.Abdug‘aniyev, R.Dusmuratov, F.Jo‘rayev, A.Q.Ismoilov, O.Murtazayev, F.B.Ahrorov, R.X.Ergashev, S.R.Xalikov, B.Yu.Menglikulov, A.R.Qurbonov, A.Muxtorov, I.O.Yunusov, B.A.Sarsenboyev, U.Beglayev, A.K.Aitimbetov va respublikamizning boshqa iqtisodchi olimlari tomonidan tadqiq qilingan<sup>4</sup>. Lekin hovuz baliqchiligi xo‘jaliklarining normativ bazasi, ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirishning tashkiliy-uslubiy masalalari deyarli o‘rganilmagan.

Shu boisdan, hovuz baliqchiligida biznes-jarayonlarni rejalashtirishning nazariy va tashkiliy-uslubiy asoslari, baliqchilikda hovuz fondi, ozuqa ta‘minoti va ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirishning hozirgi holati tahlili va uni takomillashtirish, baliq yetishtirish hajmini prognoz qilish va boshqa masalalarini hal etish zarurati vujudga kelmoqda.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** hovuz baliqchiligi xo‘jaliklarida biznes-jarayonlarini rejalashtirishning tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

hovuz baliqchiligida biznes-jarayonlarni rejalashtirishning nazariy va uslubiy asoslarini tadqiq qilish va tarmoq xususiyatlarini ochib berish;

hovuz baliqchiligi xo‘jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirishning normativ ta‘minotini o‘rganish va uning shakllanishiga baho berish;

hovuz baliqchiligida hovuz fondi, ozuqaga bo‘lgan ehtiyoj va uning tannarxini rejalashtirishning amaldagi holatini tahlil qilish va takliflar tayyorlash;

hovuz baliqchiligida xarajatlarni rejalashtirishning hozirgi holatini tahlil qilish va tavsiyalar ishlab chiqish;

hovuz baliqchiligini rejalashtirish bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganish va ulardan foydalanish imkoniyatlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

baliqchilik xo‘jaliklarida hovuz fondi va ozuqa ta‘minotini rejalashtirishning uslubiy asoslarini rivojlantirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

---

<sup>4</sup> Абдуғаниев А.А. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. Дарслик. -Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси адабиёт жамғармаси, 2004.; Р.Д.Дусмуратов, А.А.Аитимбетов, Балиқчилик тармоғи самарадорлигининг ташкилий-иқтисодий жиҳатлари. Alfraganus university нодавлат олий таълим ташкилоти, -Т.: 2024, -125 б.; Ф.Жўраев. Қишлоқ хўжалик қорхоналарида ишлаб чиқаришни ташкил этиш. -Т.: «Истиқлол», 2005.; А.Қ.Исмоилов, О.Муртазаев. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. Т., «Молия», 2005.; О.Муртазаев, Ф.Б.Ахроров. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. Т., «Илм-Зиё», 2017. -416 б.; Р.Х.Эргашев, С.Р.Халиков, У.Х.Беглаев. Балиқчилик иқтисодиёти. Дарслик, – Т., «Navro‘z» нашриёти, 2020. - 298 б.; Б.Ю.Менгликулов. Қишлоқ хўжалиги қорхоналари фаолиятини молиявий режалаштириш. «Бозор, пул ва кредит» журнали. 2006 йил. №4. 38-40-бетлар. А.Р.Қурбонов. Истиқболли балиқ турларини етиштириш. Рисола. -2017. - 50 б.; И.А.Юнусов. Балиқчилик тармоғини ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш йўллари. дис. ... и.ф.ф.д.. - Т.: 2020. - 136 б.; Б.А.Сарсенбоев. Балиқчилик соҳаси ривожланишини маркетинг ёндашувлари асосида такомиллаштириш (Қорақалпоғистон Республикаси мисолида). -Т.: «Lesson Press» МЧЖ нашриёти, 2021. - Б.141.

hovuz baliqchiligida xarajatlarini rejalashtirishning tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

Qoraqalpog'iston Respublikasida baliq yetishtirishni ta'sir etuvchi omillar asosida modellashtirish va 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan baliqchilik xo'jaliklari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib, hovuz baliqchiligi xo'jaliklarida biznes-jarayonlarini rejalashtirishning tashkiliy-uslubiy jihatlarini ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini rivojlantirish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada analiz va sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya, manbalarni sharhlash kabi nazariy va empirik usullar, taqqoslash, alohida xo'jalik faktini o'rganish kabi tadqiqot predmetiga xos xususiy usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra «biznes-jarayonlarini rejalashtirish» tushunchasining iqtisodiy mazmuni korxonalar yoki tashkilotning biznes jarayonlarini samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va maqsadlarga erishish uchun strategiya, taktika va operatsion tadbirlarni belgilash jarayonini qisqa muddatli (operatsion) va uzoq muddatli (strategik) rejalashtirishda baliqchilik xo'jaliklarining o'ziga xos faoliyat xususiyatlarini e'tiborga oluvchi tahliliy vositalar va biznes-modellashtirish usullarini qo'llash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

baliqchilik xarajatlari tasnifining kalkulyatsiya moddalarini bo'yicha tasnif belgisi «baliqlarning o'limidan yo'qotishlar», «baliqlarni kasalliklardan himoya qilish vositalari» hamda rejalashtirish qamrovi bo'yicha tasnif belgisi «rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan xarajatlar» kabi qo'shimcha tasnif elementlarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

baliqchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlarining nazorat qilinadigan ko'rsatkichlarining strategik (12-17%), asosiy (30-35%), nazorat (5-10%), operativ rejalashtirish (20-25%), rejaning bajarilishi (8-13%) guruhlarini o'rtasidagi maqbul nisbatni ta'minlash orqali rejalashtirilgan mahsulot tannarxi ko'rsatkichlarining buxgalteriya hisobi va nazoratini samarali tashkil etish asoslangan;

iqlim o'zgarishi sharoitida yog'ingarchiliklar miqdori, yillik harorat darajasi, baliqchilik xo'jaliklari soni, bir kilogramm baliqning o'rtacha narxi, hovuzlar soni va maydoni omillarining o'zaro ta'sirini ifodalovchi ekonometrik model asosida Qoraqalpog'iston Respublikasida baliq mahsuloti ishlab chiqarish hajmining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

baliqchilik xo'jaliklari uchun biznes-rejaning tarkibi va bo'limlari tavsiya etilgan;

hovuz baliqchiligida ozuqaga bo'lgan ehtiyojni hisoblash usullari tavsiya etilgan;

hovuz baliqchiligi xo'jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlar tannarxini

rejalashtirish ko'rsatkichlarining bajarilishini nazorat qilish algoritmi tavsiya qilingan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida baliqchilik xo'jaliklarining rivojlanish tendensiyalarini e'tiborga olgan holda ular faoliyatida yetishtiriladigan baliq mahsuloti iqtisodiy samaradorligining prognoz ko'rsatkichlari asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** ishda qo'llanilgan ilmiy yondashuv va usullarning mazkur sohaga oid xorijiy va respublikamiz iqtisodchi olimlari va mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan nazariy asoslarga muvofiqligi, ilgari surilgan g'oya va xulosalarni asoslashda qo'llanilgan tahliliy ma'lumotlarni baliqchilik fermer xo'jaliklari hisobot manbalaridan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi rasmiy statistik ma'lumotlari, shuningdek, boshqa amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan tasdiqlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hovuz baliqchiligi xo'jaliklarida biznes-jarayonlarini rejalashtirishning tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hovuz baliqchiligi xo'jaliklarida biznes-jarayonlarini rejalashtirishning tashkiliy-uslubiy jihatlari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, «Biznes rejalashtirish» fani bo'yicha o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy majmualarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Hovuz baliqchiligi xo'jaliklarida biznes-jarayonlarini rejalashtirishning tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra «biznes-jarayonlarini rejalashtirish» tushunchasining iqtisodiy mazmunini korxonalar yoki tashkilotning biznes jarayonlarini samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va maqsadlarga erishish uchun strategiya, taktika va operatsion tadbirlarni belgilash jarayonini qisqa muddatli (operatsion) va uzoq muddatli (strategik) rejalashtirishda baliqchilik xo'jaliklarining o'ziga xos faoliyat xususiyatlarini e'tiborga oluvchi tahliliy vositalar va biznes-modellashtirish usullarini qo'llash nuqtayi nazaridan takomillashtirish taklifidan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan «Biznes rejalashtirish» nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus talim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda korxonalar yoki tashkilotning biznes jarayonlarini rejalashtirishda baliqchilik xo'jaliklarining o'ziga xos faoliyat xususiyatlarini e'tiborga oluvchi tahliliy vositalar va biznes-modellashtirish usullarini qo'llash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan «biznes-jarayonlarini rejalashtirish» tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarini kengaytirish imkoniyati yaratilgan;

baliqchilik xarajatlari tasnifining kalkulyatsiya moddalari bo'yicha tasnif belgisi «baliqlarning o'limidan yo'qotishlar», «baliqlarni kasalliklardan himoya qilish vositalari» hamda rejalashtirish qamrovi bo'yicha tasnif belgisi

«rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan xarajatlar» kabi qo‘shimcha tasnif elementlarini kiritish orqali takomillashtirish bo‘yicha taklifi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 2-dekabrda 02/013-4710/1-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi, baliqlarning o‘limidan yo‘qotishlar, baliqlarni kasalliklardan himoya qilish vositalari, rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan xarajatlar tasnif elementlari bo‘yicha ma‘lumotlarning o‘z vaqtida, to‘g‘ri va aniq shakllantirilishini ta‘minlagan va samarali boshqaruv qarorlari qabul qilinishiga yordam bergan;

baliqchilik xo‘jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlarining nazorat qilinadigan ko‘rsatkichlarining strategik (12-17%), asosiy (30-35%), nazorat (5-10%), operativ rejalashtirish (20-25%), rejaning bajarilishi (8-13%) guruhlariga o‘rtasidagi maqbul nisbatni ta‘minlash orqali rejalashtirilgan mahsulot tannarxi ko‘rsatkichlarining buxgalteriya hisobi va nazoratini samarali tashkil etish taklifi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 2-dekabrda 02/013-4710/1-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida, baliqchilik xo‘jaliklarida mahsulot tannarxini rejalashtirish ko‘rsatkichlari bajarilishini nazorat qilishni ishlab chiqilgan algoritim asosida hamda ishlab chiqarish xarajatlarining nazorat qilinadigan ko‘rsatkichlarini guruhlashni berilgan taklif asosida amalga oshirish imkoniyati yaratilgan;

iqlim o‘zgarishi sharoitida yog‘ingarchiliklar miqdori, yillik harorat darajasi, baliqchilik xo‘jaliklari soni, bir kilogramm baliqning o‘rtacha narxi, hovuzlar soni va maydoni omillarining o‘zaro ta‘sirini ifodalovchi ekonometrik model asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasida baliq mahsuloti ishlab chiqarish hajmining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan amaliyotda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 2-dekabrda 02/013-4710/1-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi Qoraqalpog‘iston Respublikasida baliq mahsuloti ishlab chiqarish hajmining 2030-yilgacha prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 3 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, ilmiy jurnallarda 5 ta, shundan nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola nashr ettirilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan,

respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarni amaliyotga joriy qilish va nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Hovuz baliqchiligida biznes-jarayonlarni rejalashtirishning nazariy va tashkiliy-uslubiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida hovuz baliqchiligida biznes-jarayonlarni rejalashtirishning nazariy asoslari va tarmoq xususiyatlari, hovuz baliqchiligi xo‘jaliklarida biznes-jarayonlarni rejalashtirishning uslubiy ta‘minoti, hovuz baliqchiligi xo‘jaliklarida rejalashtirishning muddatlari, bosqichlari va normativ ta‘minoti tadqiq qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yilning 20-dekabr kuni baliqchilik sohasini rivojlantirish va kooperatsiya asosida baliq yetishtirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida yig‘ilishda mavjud kamchiliklar ko‘rsatib o‘tildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev «Dunyoda oziq-ovqat narxlarining o‘shishi, inflyatsiya xavf-xatarlari kelgusi yilda oziq-ovqat xavfsizligi eng dolzarb masala bo‘lib qolishini yaqqol ko‘rsatmoqda. Shu bois, viloyat hokimlari o‘z hududida baliq yetishtirish holatini tahlil qilib, tadbirkorlar va aholi xonadonlariga barcha sharoitlarni yaratib berish bo‘yicha tizimli shug‘ullanishi zarur»<sup>5</sup> deb ta‘kidlab o‘tdilar. Shu boisdan, baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirish uchun sharoit yaratib berish zarur hisoblanadi.

Biznes-jarayonlarning mazmun-mohiyatini bilib olish bugungi kunda dolzarblik kasb etmoqda. Shuning uchun, biznes va biznes-jarayonlar tushunchalariga batafsil to‘xtalib o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb hisoblaymiz.

Biznes tushunchasiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida biznesga quyidagicha ta‘rif berilgan, «Biznes (ing. business) - daromad keltiradigan yoki boshqa naf beradigan xo‘jalik faoliyati (kasb-kor, mashg‘ulot); foyda olish maqsadlari ko‘zlangan va qonunlarga xilof bo‘lmagan har qanday tashkiliy faoliyat»<sup>6</sup>. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham mazmunan shunga yaqin ta‘rif keltirilgan: «Biznes (ingl. business) - daromad keltiradigan va foyda olish maqsadlari ko‘zlangan va qonunlarga xilof bo‘lmagan har qanday tashkiliy faoliyat»<sup>7</sup>.

Iqtisodiy adabiyotlarda biznes tushunchasi bilan birga biznes-jarayon tushunchasi ham keng qo‘llanilib kelinadi. Baliqchilik xo‘jaliklarida iste‘molchilarni o‘z vaqtida baliq mahsulotlari bilan ta‘minlashga qaratilgan jarayon va tadbirlar yig‘indisi bu biznes jarayoni hisoblanadi.

Biznes jarayoni tushunchasi bo‘yicha xorijlik iqtisodchi olim M.Weske tomonidan quyidagicha fikr bildirilgan, «Biznes jarayoni - bu iste‘molchilar uchun ma‘lum bir mahsulot yoki xizmatni yaratishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan


<sup>5</sup> Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash ishlarini kuchaytirish, baliqchilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlashni kengaytirishga ko‘rsatma berildi. <https://xs.uz/uzkr/69898>

<sup>6</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2001. 2-жилд. 20-б.

<sup>7</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. <https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/?ysclid=lxlp6d6z3t691733421>

faoliyat yoki tadbirlar majmuidir»<sup>8</sup>.

Hovuz baliqchiligida biznesni rejalashtirish yangi biznesni tashkil etish yoʻlidagi muhim boʻgʻin hisoblanadi. Biznes-reja - bu korxonaga kelgusidagi faoliyatidagi barcha muhim jihatlarini tavsiflovchi duch kelinishi mumkin boʻlgan, muammolarni tahlil qiluvchi va ushbu muammolarni hal etish yoʻllarini belgilovchi hujjatdir. Mukammal darajada shakllantirilgan biznes-reja tadbirkorlarga nafaqat moliyaviy resursni jalb qilishga yordam beradi, balki ilk bosqichdayoq biznesni amalga oshirishdagi muhim strategik yoʻnalishlarini aniq belgilab olish imkonini beradi (1-rasm).



### **1-rasm. Baliqchilik xoʻjaliklarida biznes-reja hal etadigan asosiy masalalar<sup>9</sup>**

Biznes-reja - bu har qanday oddiy reja boʻlib, nafaqat biznesni boshlash rejasi bilan cheklanib qolmay, u rahbariyatga xoʻjalikning hozirgi holatini (kuchli, zaif tomonlari, imkoniyatlar va tahdidlar) tushunishga va kelajakka umidvorlik bilan qarashga yordam beradi.

Hovuz baliqchiligi tarmogʻida biznes jarayonlarni rejalashtirish juda ham muhim masalalardan hisoblanadi. Va unda tarmoqning quyidagi xususiyatlarini eʼtiborga olish zarur:

- hovuz baliqchiligi xoʻjaliklarini tashkil etish suv taʼminoti va uning oqimi yoʻnalishiga bevosita bogʻliqligi;
- hovuz baliqchiligi xoʻjaliklarini tashkil etishda suvning biologik holati (tozalik darajasi, tarkibi, mavsumiy oqimi)ga bogʻliqligi;
- kichik hajmli hovuz baliqchiligi xoʻjaliklarida yetishtirilgan mahsulot

<sup>8</sup> Weske, M. Chapter 1: Introduction // Business Process Management: Concepts, Languages, Architectures. - Springer Science & Business Media, 2012. - P. 1-24. - ISBN 9783642286162. (англ.)

<sup>9</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

natura yoki tovar mahsuloti sifatida foydalanish imkoniyati yuqoriligi;

- mehnat sig'imi nisbatan kichikligi va ilmiy hajmdor mehnatga talab yuqoriligi;

- chuchuk suvli ko'l va daryolarning ifloslanmagan oqar suvlarida baliqni ko'paytirishning qulayligi;

- yuqori darajada vaznining tez o'sishi;

- tashqi muhit sharoitiga chidamliligi;

- hovuz baliqchiligi xo'jaligida baliq zoti kesimida suv sifatiga va haroratiga talab o'zgarib borishi;


- intensiv baliqchilik rivojlanishi sharoitida daryo balig'iga talabning ortishi;

- yuqori darajada ozuqalilik sifatiga egaligi;

- hovuz baliqchiligi xo'jaligining quvvati suvning ekologik holatiga (me'yordan ohsa ifloslaydi, kam bo'lsa suvni tozalaydi) bevosita ta'sirga egaligi;

- baliq chiqindilari suv havzasida biologik xilma-xillikning sog'lomlashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va hokazo.

Rejalashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi (2-rasm).



**2-rasm. Rejalashtirish jarayoni bosqichlari<sup>10</sup>**

Uslubiy yondashuvga ko'ra «biznes-jarayonlarini rejalashtirish» tushunchasining iqtisodiy mazmunini korxonaga yoki tashkilotning biznes jarayonlarini samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va maqsadlarga erishish uchun strategiya, taktika va operatsion tadbirlarni belgilash jarayonini qisqa muddatli (operatsion) va uzoq muddatli (strategik) rejalashtirishda baliqchilik xo'jaliklarining o'ziga xos faoliyat xususiyatlarini e'tiborga oluvchi tahliliy vositalar va biznes-modellashtirish usullarini qo'llash nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

<sup>10</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

**«Baliqchilikda hovuz fondi, ozuqa ta'minoti hamda xarajatlarni rejalashtirishning hozirgi holati tahlili»** deb nomlangan ikkinchi bobida Qoraqalpog'iston Respublikasida hovuz fondi va ozuqa bilan ta'minlanganlikni rejalashtirishning amaldagi holati tahlil qilingan, hovuz baliqchiligida xarajatlarni rejalashtirishning hozirgi holati tahlili keltirilgan, hovuz baliqchiligini rejalashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida karpsimon baliqlarini yarim intensiv usulda yetishtiradigan to'liq tizimli ikki yillik oborotdagi hovuz baliqchiligi xo'jaliklarida yaylov hovuzlari eng katta ulush (90-95 %)ni tashkil etadi. Uch yillik oborotda esa, ularning ulushi 30 foiz-punktgacha kamayishi va 55-60 % ni tashkil etishi mumkin (1-jadval).

**1-jadval**

**Qoraqalpog'iston Respublikasi hovuz fondining tuzilmasi<sup>11</sup>, %**

Hovuzlarning toifalari	To'liq tizimli xo'jaliklar		Pitomniklar
	ikki yillik oborot	uch yillik oborot	
Urchitish hovuzlari	0,1– 0,3	0,15 – 0,30	2–3
O'stirish hovuzlari: birinchi tartibli	5–8	12–15	70–85
uchinchi tartibli		20–25	
Qishlov hovuzlari	3,5–4	0,3 – 0,4	1,5–3,0
Yaylov hovuzlari	90–95	55–60	-

Baliqchilik xo'jaliklari faoliyatini rejalashtirishda asosiy vositalar soni va ularning holatiga e'tibor qaratish lozim. Bu mahsulot yetishtirish hajmiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida baliqchilik xo'jaliklarida mavjud asosiy vositalar qiymati va holatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2021-yilda jami 1190 ta baliqchilik xo'jaliklari mavjud bo'lsa ularda 21888 mln. so'mlik qiymatdagi jami 1326 ta texnikalar mavjud bo'lgan. Ushbu texnikalarning 40 tasi yoki 3 foizining foydalanish muddati 1-3-yilni, 159 tasi yoki 12 foizini 3-5-yilni, 358 tasi yoki 27 foizini 5-10-yilni tashkil etgan bo'lsa, 10-yildan ko'proq muddatdan buyon foydalanilayotgan texnikalar soni 769 tani yoki 58 foizni tashkil etgan. 2023-yilda esa, 1263 ta baliqchilik xo'jaliklarida 38736,6 mln. so'm qiymatidagi jami 1684 ta texnikalar mavjud bo'lgan. Ushbu texnikalarning 168 tasi yoki 9 foizining foydalanish muddati 1-3-yilni, 219 tasi yoki 13 foizi 3-5-yilni, 455 tasi yoki 28 foizi 5-10-yilni tashkil etgan bo'lsa, 10-yildan ko'proq muddatdan beri foydalanilayotgan texnikalar soni 842 yoki 50 foizni tashkil etgan (2-jadval).

Baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish va baliq mahsulotlari hajmini oshirishda aylanma vositalarning o'rnini muhim hisoblanadi. Baliqchilik korxonalarini faoliyatini rejalashtirishda ozuqa bazasini mustahkamlash, mineral o'g'itlarga, yoqilg'i moylash materiallariga bo'lgan talabni e'tiborga olish lozim. Ushbu masala bugungi kundagi asosiy muammolaridan sanaladi. Ma'lumki, ozuqa xarajatlari salmog'i baliqchilik xo'jaliklarida eng yuqori bo'lib, o'rtacha 65-70 foiz

<sup>11</sup> Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

xarajatlar, aylanma vositalar, aynan ozuqa bilan bog'liq bo'ladi.

**2-jadval**

**Qoraqalpog'iston Respublikasida baliqchilik xo'jaliklarida mavjud asosiy vositalar qiymati va holati<sup>12</sup>**

Ko'rsatkichlar	Yillar			2023-yil 2021-yilga nisbatan, % da
	2021-yil	2022-yil	2023-yil	
Baliqchilik xo'jaliklari soni, ta	1 190	1 226	1 263	106,1
Xo'jaliklar balansidagi texnikalar soni, dona	1 326	1 401	1 684	127,0
Xo'jaliklar balansidagi texnikalar qiymati, mln. so'm	21 888,0	29 624,0	38 736,0	176,0

Monografik tadqiqotlar davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtkul tumanidagi «Qoraqalpoq oltin baliq FX», Amudaryo tumanidagi «Adil Kuchan» baliqchilik fermer xo'jaliklarining baliq yetishtirish iqtisodiy samaradorligi, ularning hovuz fondi, ozuqaga bo'lgan ehtiyoji tahlil qilindi va biznes-reja tuzish holati o'rganildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani «Qoraqalpoq oltin baliq FX» fermer xo'jaligining hovuz fondi bilan ta'minlanganligi va undan foydalanish samaradorligi o'rganilganda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (3-jadval).

**3-jadval**

**Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani «Qoraqalpoq oltin baliq FX» fermer xo'jaligining hovuz fondi bilan ta'minlanganligi va undan foydalanish samaradorligi<sup>13</sup>**

Ko'rsatkichlar	Yillar					2023-yil 2019-yilga nisbatan, %da
	2019	2020	2021	2022	2023	
Jami yer maydoni, ga	238,6	238,6	615,4	670,6	670,6	281,1
Hovuzlar maydoni, ga	120	120	140	145	160	133,3
Asosiy vositalar qiymati, ming so'm	112400	78680	3176862	3176862	1217350	1083,1
sh.j: bino va inshootlar	76432	48782	2287341	2382646	949533	1242,3
Inshootlarning asosiy vositalar umumiy qiymatidagi ulushi, (%)	25	31	46	51	59	236,0
Ishlab chiqarilgan baliq, tonna	184,8	200	238	270	299,2	161,9
Baliq mahsuldorligi, s/ga	15,4	16,6	17	18,6	18,7	121,4
Foyda, ming so'm	384714	737438	880124	1036996	946582	246,0
1 ga hovuz maydoniga to'g'ri keladigan yalpi foyda, ming so'm.	3206,0	6145,3	6286,6	7151,7	5916,1	184,5

3-jadval ma'lumotlari tahliliga ko'ra, hovuz fondidan foydalanish

<sup>12</sup> Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>13</sup> «Qoraqalpoq oltin baliq FX» fermer xo'jaligining yillik moliyaviy hisobotlari, statistik hisobotlari va joriy buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosidan muallif tomonidan tuzilgan.

samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar pasayish tendensiyasiga ega. Buning asosiy sabablaridan biri umumiy yalpi foyda va 1 ga hovuz maydoniga to'g'ri keladigan yalpi foydaning kamayishi hisoblanadi.

Amudaryo tumanidagi «Adil Kuchan» fermer xo'jaligining 2023-yil uchun tuzgan biznes-rejasida baliq sonini ko'paytirish, daromad olish va aholini baliq mahsulotlariga bo'lgan talablarini qondirish rejalashtirilgan. Kelgusida baliqchilik mahsulotlarini aynimasligi uchun ko'l bilan bozor oralig'idagi masofani hisobga olgan holda avtomashina (muzlatgichi bilan) sotib olish reja qilingan. Shuningdek, baliqni quritgan holda (kopchyonka) eksport qilish ham rejalashtirilgan (4-jadval).

#### 4-jadval

#### «Adil Kuchan» fermer xo'jaligida moddiy-texnika vositalarining rejalashtirilishi<sup>14</sup>, dona

№	Nomi va markalari	yillar			2023-yilda 2021-yilga ga nisbatan farqi (+,-)
		2021	2022	2023	
1	Avtomashina	1	1	1	-
2	Qayiqqlar	2	2	3	1
3	Setkalar (to'rlar)	2	2	4	2

Fermer xo'jaligi aylanma mablag'lar, xususan ozuqa mahsulotlari sotib olish uchun quyidagi xarajatlar qilishni rejalashtirgan (5-jadval).

#### 5-jadval

#### «Adil Kuchan» fermer xo'jaligida aylanma mablag'lar, xususan ozuqa mahsulotlari sotib olishning rejalashtirilishi<sup>15</sup> (2023-yil)

№	Nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi, ming so'm	Jami summa, ming so'm
1	Omuxta yem	Tn	2	2400	4 800 000
2	Mineral o'g'it	Tn	1	2800	2 800 000
3	Chavoq uchun	dona	1500	14 000	21 000 000
4	Boshqa xarajatlar				2 400 000
<b>Jami</b>					<b>31 000 000</b>

Baliqchilikda xarajatlarni tasniflash bu ularni tarmoq hisobi tizimida aks ettirish uchun ajratilgan ko'plab xususiyatlarning umumiylikiga muvofiq amalga oshiriladi, uning batafsil tavsifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevralda 54-son qarori bilan tasdiqlangan «... xarajatlari tarkibi to'g'risidagi Nizom» da keltirilgan. Shundan kelib chiqib, baliqchilikda ishlab chiqarish xarajatlari tasnifini quyidagicha shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda baliqlarni himoya qilish vositalari jami xarajatda 2-3 % ni, baliqlarning o'limidan yo'qotishlar esa, 3-4 % tashkil etganligi uchun alohida

<sup>14</sup> «Adil Kuchan» fermer xo'jaligi biznes-reja malumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

<sup>15</sup> «Adil Kuchan» fermer xo'jaligi biznes-reja malumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

tasnif elementi sifatida tasnif belgilariga kiritildi (6-jadval).

6-jadval

### Baliqchilikda ishlab chiqarish xarajatlarining klassifikatsiyasi<sup>16</sup>

Klassifikatsiya belgisi	Klassifikatsiya elementi
Kalkulyatsiya moddalari bo'yicha	1. Ishlab chiqarishda foydalaniladigan moddiy resurslar, shu jumladan: 1.1. baliqlar ozuqasi; 1.2. baliqlarni himoya qilish vositalari; 1.3. yoqilg'i-moylash mahsulotlari; 1.4. texnologik maqsadlar uchun energiya; 1.5. ishlar va xizmatlar. 2. Mehnat haqi, shu jumladan: a) asosiy; b) qo'shimcha; c) natura; d) boshqa to'lovlar. 3. Ijtimoiy soliq 4. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari (amortizatsiya, ta'mirlash) 5. Yordamchi ishlab chiqarishlar xarajatlari 6. Umumishlab chiqarish xarajatlari 7. Soliqlar va yig'imlar 8. <i>Baliqlarning o'limidan yo'qotishlar</i> 9. Boshqa xarajatlar
Iqtisodiy elementlari bo'yicha	- moddiy xarajatlar; - mehnat xarajatlari; - ijtimoiy soliq; - amortizatsiya xarajatlari; - boshqa xarajatlar.
Ishlab chiqarish jarayoniga munosabati bo'yicha	- mehnat buyumlarining xarajatlari; - mehnat xarajatlari.
Tannarxga kiritish usuli bo'yicha	- to'g'ri xarajatlar; - egri xarajatlar.
Xarajatlar tarkibi bo'yicha	- oddiy (bitta xarajat elementidan tashkil topgan) - murakkab (bir necha xarajat elementlaridan tashkil topgan)
Texnik-iqtisodiy mazmuni bo'yicha	- asosiy xarajatlar - qo'shimcha xarajatlar.
Ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligi bo'yicha	- o'zgaruvchan xarajatlar (ishlab chiqarish hajmiga qarab) - shartli doimiy xarajatlar (mustaqil yoki ishlab chiqarish hajmiga kam bog'liq)
Limitlanishi bo'yicha	- limitlanadigan xarajatlar (soliqqa tortish maqsadida) - limitlanmaydigan xarajatlar;
Rejalashtirish qamrovi bo'yicha	- <i>rejalashtiriladigan xarajatlar;</i> - <i>rejalashtirilmaydigan xarajatlar.</i>

Baliqchilikda ishlab chiqarish xarajatlarining kalkulyatsiya moddalari bo'yicha klassifikatsiyasini takomillashtirish maqsadida baliqlarni himoya qilish vositalari va baliqlarning o'limidan yo'qotishlar klassifikatsiya belgilari bo'yicha alohida hisobga olinishini taklif qilamiz. Chunki, baliqchilikda ushbu belgilar katta

<sup>16</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

rol o'ynaydi, mazkur belgilar bo'yicha to'liq va to'g'ri analitik ma'lumotlar shakllanadi va axborot ta'minoti yaxshilanadi. Bu esa, samarali boshqaruv qarorlari qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hovuz baliqchiligini rejalashtirish va biznes-reja tuzish masalalari bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish va ushbu tajribalar asosida Respublikamiz baliqchilik xo'jaliklari uchun biznes-reja namunasini ishlab chiqish juda muhim masalalardan hisoblanadi.

Biznes-rejaning maqsadi biznesni amalga oshirishning haqiqiy imkoniyatlarini ko'rsatish, shuningdek, tashqaridan investitsiyalarni jalb qilish zarurligini (yoki yetishmasligini) ko'rsatishdir. Shundan kelib chiqib, biznes-reja ikki guruh foydalanuvchilarni qabul qiladi:

- ichki - biznes g'oyaning asoschilari, xodimlari va tashabbuskori;
- tashqi - potensial investorlar, hamkorlar, kreditorlar.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamkorlar uchun biznes-reja metodikasining soddalashtirilgan variantni ishlab chiqdi:

- «1. Sarlavha sahifasi
2. Maxfiylik memorandumi
3. Rezyume
4. Kompaniya
- 4.1. Korxonaning rivojlanish tarixi va biznes-rejani tuzish vaqtidagi holati, joriy faoliyat tavsifi
- 4.2. Korxonaning egalari, boshqaruv xodimlari, xodimlari
- 4.3. Joriy faoliyat
- 4.4. Moliyaviy holat
- 4.5. Kreditlar
5. Loyiha
- 5.1. Loyiha haqida umumiy ma'lumot
- 5.2. Loyiha investitsiya rejasi
- 5.3. Bozor tahlili, raqobatbardoshlik
- 5.4. Ishlab chiqarish jarayonining tavsifi
- 5.5. Moliyaviy reja
- 5.6. Atrof-muhitni baholash
6. Moliyalashtirish
- 6.1. Kredit mablag'larini olish va to'lash jadvallari
- 6.2. Garov va kafillik
- 6.3. Kredit mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan uskunalar va ishlar
- 6.4. SWOT tahlili
- 6.5. Xatarlar va ularni kamaytirish choralari
7. Ilovalar»<sup>17</sup>.

Biznes-reja iqtisodiy manbalardagi tushunchasiga berilgan ta'riflar va yondashuvlarni e'tiborga molik deb hisoblagan holda mazkur tushunchaga o'z yondashuvimizni shakllantirdik: «Biznes-reja - bu xo'jalik yurituvchi subyektning batafsil tavsifini beruvchi, maqsad va vazifalarni shakllantiradigan, biznesni

---

<sup>17</sup> Обзор методик формирования инвестиционного бизнес-плана. М.В.Чараева, А.В.Палеев // Финансы и кредит. - 2014. - № 18. - С. 2-8.

rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilaydigan, shuningdek moliyaviy xarajatlarni asoslaydigan va biznes g‘oyasini amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni hisoblaydigan hujjat. Biznes-rejani ishlab chiqishning asosiy maqsadi xo‘jalik subyekti faoliyatini bozor ehtiyojlari va zarur resurslarni olish imkoniyatlariga muvofiq yaqin davrga rejalashtirishdir”.

Biznes-reja tuzilishi bo‘yicha iqtisodiy manbalardagi yondashuvlarni o‘rganish asosida hamda baliqchilik xo‘jaliklarining xususiyatlarini inobatga olgan holda biznes-reja tuzilishi quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga olishi kerak degan, o‘z yondashuvimiz shakllantirildi:


- «1. Rezyume
2. Baliqchilik xo‘jaligi tavsifi
3. Baliq mahsulotlari tavsifi
4. Bozor va baliqchilik tarmog‘i tahlili
5. Marketing rejasi
6. Baliq ishlab chiqarish rejasi
7. Menejment
8. Risk tahlili
9. Moliyaviy reja

10. Ilova». Shunday qilib, yuqorida tavsiya etilayotgan tuzilishdagi biznes-reja baliqchilik xo‘jaliklarini rivojlantirish uchun asos bo‘ladi. Mazkur biznes-reja asosida ishlab chiqarishni tashkil etish va unga amal qilish baliqchilik xo‘jaligining ko‘zlangan asosiy maqsadiga erishishni, ya‘ni biznes-rejada ko‘rsatilgan sof foydani olishni ta‘minlaydi.

**«Baliqchilikda hovuz fondi, ozuqa ta‘minoti va xarajatlarni rejalashtirishning tashkiliy-uslubiy ta‘minotini takomillashtirish»** deb nomlangan uchinchi bobda baliqchilik xo‘jaliklarida hovuz fondi va ozuqaga bo‘lgan ehtiyojni rejalashtirishning uslubiy ta‘minotini rivojlantirish hamda hovuz baliqchiligida ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirishning tashkiliy-uslubiy ta‘minotini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasida baliq yetishtirishni ta‘sir etuvchi omillar asosida modellashtirish va uning samaradorligini tadqiq qilish asosida prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.


Baliqchilik xo‘jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini rejalashtirishda quyidagi asosiy rejalashtirish hujjatlari tuzilishi lozim: ishga tushirish xarajatlari smetasi; yangi turdagi mahsulotlar va yangi texnologiyalarni tayyorlash va ishlab chiqarishni o‘zlashtirish uchun xarajatlar smetasi; transport va xarid xarajatlari smetasi; maxsus jihozlar ishlab chiqarish xarajatlari smetasi; maxsus xarajatlar smetasi; yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari smetasi: asosiy ishlab chiqarish bo‘yicha qo‘shimcha xarajatlar smetasi; umumiy biznes xarajatlari smetasi va h.q.

Baliqchilik xo‘jaliklarida ishlab chiqarish tannarxining rejalashtirilgan ko‘rsatkichlari bajarilishi ustidan nazoratni 3-rasmda keltirilgan aniq ketma-ketlikda amalga oshirish taklif etiladi.



**3-rasm. Baliqchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarish tannarxining rejalashtirilgan ko'rsatkichlari bajarilishini nazorat qilish algortmi**<sup>18</sup>

